

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10969640>

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHISINING OILA BILAN OLIB BORADIGAN MASALALARI

**Mamadaliyev Kobil Kadirovich**


University of Business and Science Pedagogika psixoligiya  
kafedrasi magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Oiladagi ta'lism tarbiyaning turli tuman sharoitlar ta'sirida bo'lishi bolalarni rivojlanishiga turlicha tavsir etishi, Bola hayotining dastlabki bosqichlarida oilaning tutgan o'rni, Ota-onalarda maktabgacha ta'lism tashkilotlari xodimlari bilan hamkorlik qilishga intilishlarini shakllantirish, kichkintoylarning birinchi tarbiyachisi sifatida oilani bola hayotidagi yetakchi o'rnini haqida nazariy ma'lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Ota-onalar, Tarbiyachilar, Maktabgacha ta'lism tashkiloti, farzand tarbiyasi, barkamol shaxs, xulq-atvor, bilimli, dono, zukko, kasbiy mahorat.

Tarbiyachilar, ota-onalar bolalarni aynan bir xil, o'xshash narsalar faoliyat turlari bilan ta'minlashlari uchun ularning o'ziga xos hislatlari, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko'rsatkichlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishlari kerak. Shuningdek, ota-onalar va tarbiyachilar bir xil yoshdagи bolalarning qobiliyatlar, qiziqishlaridagi farqlarga va ruhiy holatlariga e'tibor bilan qarashi kerakligini mutaxassislar ta'kidlab o'tadilar. Bola rivojlanishining o'ziga xosligiga oid jihatlar, bolalar qiziqishiga javob beruvchi faoliyat turlari, nutqlarning faolligi va ijtimoiy hissiy jihatdan yetuklik darajasi ko'zda tutiladi. Faoliyat turlari kichkintoylarni hayotga, tabiatga qiziqishlariga, tajtibadan qoniqish hosil qilishlariga hamda o'z g'oyalarini tajribada sinab ko'rish xohishi va istaklariga qaratilgandir. Shu o'rinda, ota-onalar hamda pedagoglar bolalar ulg'ayishini hisobga olib, harakat qilgan holda ta'lism holatini muqobillashtirish va uni chuqurlashtirishga xizmat qiladigan metodlardan o'rinli foydalanishlari kerak. Ota-onalar hamda pedagoglarning vazifasi bolalarni muloqotga kirishishga bo'lgan intilish va qiziqishlarini rag'batlantiruvchi muhit yaratish va bolalarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga qarab, o'z vaqtida kerakli shart - sharoitlarni yaratish, bu sharoitlarga bolalarni moslashtirish kerak. Ayrim bolalar bilan individual yoki

guruhlarda ishslash ehtiyoji tug‘iladi. Bunday hollarda maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlari ota-onalar bilan suhbatlar tashkillab so‘ng, bolalarni qaysidur ko‘nikmalariga alohida e’tibor berishlari kerak. Bunday bolalarning ota-onalari va oilaning boshqa a’zolarini ta’limiy faoliyatlarga taklif etish, ular o‘z farzandlarini ta’limiy faoliyatdagi ishtiyocoq, intilishlarni ko‘rishi, o‘quv jarayonini qanday ketayotganini ko‘rishi mumkin. Shunda ota-onalar farzandlarini o‘rtoqlari bilan o‘zaro muloqot qilayotganlarini, ular bilan kelishayotganlarini hamda ta’limiy faoliyatdagi ishtiroklariga guvoh bo‘lishlari mumkin. Oilalar hamkorligi bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, bolaning birinchi pedagogi uning ota-onasi hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining oila bilan olib boradigan hamkorlik ish mazmuni quyidagilarni tashkil etadi.



Kichkintoy maktabgacha ta’lim tashkilotida egallagan eng yaxshi bilim, ko‘nikma va malakalarini oila sharoitida davom ettirib, oilada egallagan eng yaxshi xulq-atvorlarini maktabgacha ta’lim tashkilotida namoyon qilsa ijobiy samaralar berishi mumkin.

Pedagoglar oila tarbiyasiga oid ishlarni ko‘rib, kuzatib qolmay, balki uni qo‘llab-quvvatlash va shu asosda ota-onalar diqqatini farzand tarbiyasida hali hal etilmagan vazifalarga qaratishi lozim. Yuqoridaq ishlarni rejalashtirish va

ommalashtirish, tashkil etish va ularga rahbarlik qilishda maktabgacha ta’lim tashkiloti direktor mas’ul shaxs hisoblanadi. Ota-onalarga maktabgacha ta’lim tashkilotiga tashrifida O’zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari haqida ma’lumot beradi. Ota-onalarni davlat talablarining maqsad, vazifa va asosiy tamoyillari haqida tushuncha beradi, uning kichik sohalari bilan tanishtiradi. 0 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni rivojlanishiga qo‘yilgan talablar natijasini farzandlarga kuzatish va farzandlarining erishgan natijalari yuzasidan fikr almashihsadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotining “Ilk qadam” o‘quv dasturi, uning maqsadi, vazifalari va unda tasdiqlangan mavzular yuzasidan ota-onalari bilan fikr almashishadi. Yuqorida hujjalarning asosida oilalarda ham bolalarni bilim, ko‘nikma malakalariga e’tiborli bo‘lishlarini alohida ta’kidlab maktabgacha ta’lim tashkilotining yillik rejasiga kiritadi va ota-onalar hamda pedagoglar hamkorligida tasdiqlanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti ota-onalar bilan ishslash yuzasidan yillik reja tuzadi. Bu reja jamoaning pedagogik kengashida muhokamaga qo‘yiladi va tasdiqlanadi. Rejada umumiyligi va guruhiy yig‘ilishlar, ota-onalar uchun ochiq eshik kunlari, suhbat va maslahatlar, amaliy tavsiyalar, otaliq tashkilotlarda ko‘rgazmalar tashkil etish, musiqiy kechalar tashkil etish, shuningdek, tadbirlar o‘tkazish vaqtлari va ular uchun mas’ul bo‘lgan shaxslar belgilanadi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan hamkorlik ishlarining mavzulari va mazmuni tarbiyachi hamda uslubchining rejasida tarbiyachining yillik rejasida aks etadi. Ota-onalar bilan ishslash bo‘yicha ko‘p ishlarni tarbiyachi pedagog amalga oshiradi, chunki bola tarbiyasida yuz berayotgan o‘zgarishlarni hammadan ko‘proq biladi, bolalar hayoti bilan yaqindan tanish bo‘ladi. U ota-onalarga farzandlari tarbiyasida nimalarga ko‘proq diqqat bilan qarash kerakligi, ularni hayotga va matab ta’limiga tayyorlash, sog‘liqlarini saqlash, vaqtida ovqatlanish va kun tartibini to‘g‘ri tashkil etish va rioya qilish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida oila bilan hamkorlik o‘rnatishda maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori, pedagoglar jamoasi, homiy tashkilotlar hamda ota-onalar birgalikda faol ishtirok etishlari o‘ta muhimdir. Shu asosda farzand tarbiyasida kutilayotgan natjalarga ijobjiy erishishi mumkin. Ota-onalar bilan ishslashda quyidagi ish shakllaridan foydalanish ya’ni suhbatlar, amaliy tavsiyalar, maslahatlar, oilalarga borish, namunali ota-onalarni maktabgacha ta’lim tashkilotiga taklif etib farzandlarini erishgan bilim va makalarini ham namoyish etishga ijobjiy natija beradi. Oilalarga tashrif buyurishdan maqsad, bola yashayotgan oila sharoiti, bolaning oiladagi xulqi, psixologik holati, qiziqishlari,

hohishlari, ota-onalar va oila a'zolari bilan yaqindan tanishish, shuningdek, ota-onalarni farzand tarbiyasining samarali metodlari bilan tanishtirish va oilaning farzand tarbiyasidagi ijobjiy tajribalarini o'rganib, guruhdagi barcha ota-onalar uchun ommalashtirish. Pedagog kichkintoylarning oilasiga tekshirish, kuzatish maqsadida emas, balki do'st hamfikr farzand tarbiyasidek murakkab ishda yordam beruvchi shaxs sifatida borishi, oila a'zolari bilan madaniyatli, odob-axloq doirasida munosabatda bo'lishi o'ta muhimdir. Pedagog har bir kichkintoyning oilasiga tashrif buyurishdan avval o'z oldiga maqsad qo'yishi, qaysi mavzuda suhbatlashishni, qanday savollar berishni belgilab olishi kerak. Chunki, ota-onalar uchun beriladigan savollar o'ta puxta o'ylangan bo'lishi kerak. Oilaga tashrifda o'tkaziladigan suhbat mazmuni shunday bo'lishi kerakki, pedagog bilan ota-onalar bir-birlarini yaxshi tushunishlari, ular ovrtasida ishonchli, qiziqarli va samarali aloqa bo'lishi kerak. Pedagog oilaga tashrifidan oldin shu oila to'g'risida (ota-onalarning xarakterlari, oilaviy munosabatlari, shart-sharoitlari, bolaning kamol topishi darajasi) to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Pedagog ota-onalar hurmati, e'tibori va ishonchini qozonmoq uchun dastlab ota-onalarga farzandining qiziqishlari, ijobjiy fazilatlari, erishgan yutuqlari to'g'risida fikr va mulohazalarni bildirishi hamda kichkintoyning uyidagi hayotini qanday tashkil etish lozimligi, unga qanday ertak va hikoyalalar yoqishi, ertak va hikoyalarni aytib yoki o'qib berish mumkinligi, bolaning oiladagi mehnat faoliyatida qatnashishi, kattalarga hurmatda bo'lishi, kun tartibiga rioya qilish, ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuni va usullari bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi. Pedagogning oila hamkorligi bilan olib boradigan ishida albatta bolaning yoshi, qiziqishlari, imkoniyatlari o'ziga hos xususiyatlarni inobatga oladi. Pedagoglarning ota-onalarga, oila a'zolariga beradigan tavsiya va maslahatlari ishonchli va samarali bo'lishi uchun ota-onalar yoki oilaning boshqa a'zolari maktabgacha ta'lim tashkilotiga taklif etiladi. Oqilona tashkil etilgan sog'lom, ijtimoiy-ma'naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko'rsatishga va yangiliklar yaratishga hamda ijodkorlik qobiliyatini yanada namoyish etishga zamin yaratadi. Bunda pedagoglar bolalarni rivojlanishi qanday kechayotgani to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlari, buning uchun doimiy ravishda ularni nazorat qilib borishlari hamda ota-onalar bilan hamkorlikni yanada yuksaltirish zarur bo'ladi. Bolani rivojlanishini o'ziga xosligini hisobga olishda uni avvalo tushunib yetishi, uni faoliyat turlarida faol qatnashishlarini ta'minlashlari, boshqalardan ajralib turadigan sifatlariga e'tiborli bo'lishlari kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti, ta'lim dasturining yana bir muhim elementi bu ota-onalar qo'mitasidir. U maktabgacha ta'lim tashkilotida ishlarni muhokama

qilish uchun pedagoglar jamoasi bilan uchrashuvlar o'tkazadi. Qo'mitaga ota-onalar a'zo bo'ladi, biroq unga mahalliy jamoatchilik boshqaruv organlari vakillari ham kiritilishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari ota-onalar bilan birgalikda hamkorlik doirasida dasturda ishtirok etayotgan yoki uning doirasida bo'lgan har bir oilaning o'ziga xos ehtiyojlarini aniqlaydilar. Shuningdek, pedagoglar va keng jamoatchilik vakillaridan tashkil topgan, qo'llab-quvvatlash hamjamiyati ham tuziladi. Bu hamjamiyat mazkur dasturni samarali o'tishi bolalar rivojlanishga yordam berishi uchun mo'ljallangan rejalshtirish va aloqa, masalalari va muammolarini muhokama qilishga ko'maklashadi.

Xulosa o'mida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi metodlari tasnifi va ularni rivojlanadirish vositalari asosida tashkillangan ishlar bolalarni hayotga hamda maktab ta'limiga tayyorlash, bolalarni kelgusida bilimli, dono, zukko bo'lishlari uchun zamin yaratadi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati /References**

1. "Milliy taraqqiyot yo'limizmi qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". Sh.Mirziyoyev . Toshkent 2017
2. "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Sh.Mirziyoyev
3. "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib –intizom va shaxsiy rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Sh.Mirziyoyev
4. Q.Shodiyeva "Nutq o'stirish uslubiyoti" Toshkent 2009y.
5. "O'zbekiston Respublikasining ilk maktabgacha yoshdag'i bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" Toshkent O'zRMTV 2018y.
6. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi .Toshkent O'zRMTV 2018y.
7. "Bolalar psixologiyasi" Noshir nashiriyoti Toshkent 2013.
8. "Bolalar adabiyoti" Mamasoli Jumaboyev Toshkent -2008